

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори. сиёсий фанлар номзоди. профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шохид Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUIJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOVATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i> О'ЗБЕКИСТОНДА О'ZINI О'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING АНОЛИНИ ИЖТИМОИЙ НИМОYA QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING АНАМИYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI	158-170
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Хакимович</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quratboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida).....	205-214

<i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	215-219
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS	220-227
<i>Ravshanova Gulrukhbegim Qaxramon qizi</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ	228-232
<i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	233-237
<i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI	238-243
<i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI	244-252
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI	253-258
<i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR	259-265
<i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION	266-271
<i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI	272-277
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	278-286
<i>Murzaev Shuxrat Shavkatovich</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ	287-293
<i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL	294-301
<i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES	302-309
<i>Hodjaeva Shirinxon Olimxon kizi</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ	310-315
<i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA	316-322
<i>Aliyev Sobir Tursunboevich</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	323-329

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Xajiyeva Iroda Adambayevna

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIIY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИYA ТАРАҚҚИYOTИДА КОММУНИКАТИV КОМПЕТЕНСИYA
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Rahmatova Dilafruz Nusratilloevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi
rahmatovadilafruz2@gmail.com

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI

Annotatsiya. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston ma'naviy hayoti juda keskin o'zgarishlarga uchradi. Bu hol, tabiiyki, jadid adabiyotida ham namoyon bo'ldi. Birinchidan, shu paytgacha adabiy me'yor sanalgan arab, fors-tojikcha so'zlarning ishlatilishi bo'lsa, ikkinchi tomondan Turkistonga rus tilining kirib kelishi bilan namoyon bo'ladi. Buning ustiga rus tili orqali Yevropa tillarining kirib kelishi ham o'zbek tilining takomiliga, rivojiga hissa qo'shdi. Samarqand jadidchilik maktabi vakillari asarlari tilini tahlil qilish orqali ijodkorning tildan foydalanish uslubini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: Turkiston, "usuli savtiya" jadid maktablari, darsliklar, uslub va uslubshunoslik, badiiy obraz, dialektizm, jargon so'zlar, ijtimoiy-tarixiy jarayon.

Rakhmatova Dilafruz Nusratilloevna
PhD, Candidate of Philological Sciences, Senior Lecturer of
Samarkand State Institute of Foreign Languages
rahmatovadilafruz2@gmail.com

THE LINGUISTIC FEATURE OF THE WORKS OF REPRESENTATIVES OF THE SAMARKAND SCHOOL OF JADIDISM

Abstract. At the end of the XIX - beginning of the XX century, the spiritual life of Turkestan underwent very drastic changes. This, of course, manifested itself in the Jadid literature. Firstly, if there is the use of Arabic, Persian-Tajik words, which until then were considered a literary norm, then, secondly, this is manifested in the penetration of the Russian language into Turkestan. In addition, familiarity with European languages through the Russian language also contributed to the improvement and development of the Uzbek language. Analyzing the language of the works of representatives of the Samarkand Jadid school, one can trace the style of language use by the creator.

Keywords: Turkestan, Jadidi schools "usuli savtia", textbooks, stylistic and methodological studies, artistic image, dialecticism, slang words, socio-historical process.

Рахматова Дилафруз Нусратиллоевна
Кандидат филологических наук, старший преподаватель
Самаркандского государственного института иностранных языков
rahmatovadilafruz2@gmail.com

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ САМАРКАНДСКОЙ ШКОЛЫ ДЖАДИДИЗМА

Аннотация. В конце XIX - начале XX века духовная жизнь Туркестана претерпела кардинальные изменения. Это, естественно, проявилось и в джадидской литературе. Во-первых, употребление арабских, персидско-таджикских слов, которые до тех пор считались литературной нормой, во-вторых, это проявляется в проникновении русского языка в Туркестан. Вдобавок ко всему, знакомство с

европейскими языками через русский язык также способствовало совершенствованию и развитию узбекского языка. Анализируя язык произведений представителей самаркандской школы джадидов, можно проследить стиль использования языка.

Ключевые слова: Туркестан, джадидские школы "усули савтия", учебники, стилевые и методологические исследования, художественный образ, диалектизм, жаргонные слова, социально-исторический процесс.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N34>

Kirish. Matnning tili va uslubiylatini tahlil qilish orqali insoniyat ma'naviy madaniyatining tarixi va mohiyatini o'rganish mumkin. Uslubiyat tilshunoslikning tildan foydalanish uslublarni o'rganadigan tarmog'i sifatida til uslublari, nutq uslublari, janr uslublari, ma'lum bir yozuvchining individual uslubini tadqiq qiladi. Tilning ifodaviy vositalarini va ulardan turli nutqiy munosabatlarda foydalanish usullarini o'rganadi. Shunga ko'ra tilshunos olimlar uslubiyatni uch turga bo'lib tadqiq qilishni tavsiya etadilar. Unga ko'ra: a) til uslubiyati; b) nutq uslubiyati; c) matn uslubiyatiga bo'lib o'rganish mumkin. Til uslubiyatini funksional uslubiyat sifatida til birliklarining ma'lum sharoitdan tashqaridagi holati o'rganiladi. Nutq uslubiyati tilning ijtimoiy hayotda, ma'lum shaklda qo'llanishiga qarab ajratiladi. Matn uslubiyati amaliy uslubiyat deb ham yuritiladi. Bunda matn uslubi, yozuvchi uslubi, adabiy oqim uslubi o'rganiladi. Matnda til faqat fikr shakli bo'lib qolmay, balki badiiy obraz unsuri sifatida ham qaraladi. Matnda har qanday til fakti badiiylk vazifasini bajarishi mumkin. Bunga adabiy tilga kirmagan dialektizmlar, jargonlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til materialining vazifasi matnda o'zgaradi. Matn uslubiyati tilning adabiyotda qanday qilib san'at hodisasiga aylanganini tekshiradi. Matn uslubiyati faqat yozuvchining tildan foydalanishdagi o'ziga xosligini, asar tilining xususiyatlarini tadqiq etish bilan chegaralanishini hisobga olsak, har bir yozuvchining individual munosabati namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tadqiq qilinayotgan XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida jamiyatda katta siyosiy, ijtimoiy, madaniy, tarixiy o'zgarish yuz berdi. Bu esa, tabiiyki tilda o'z aksini topdi. Bu hol, adabiy tilning yangi so'z va jumlar bilan boyib borishini hamda ishlatilib turgan so'zlarning yangi ma'no nozikliklari kasb etishini, tilning morfologik va sintaktik qurilishdagi takomillashuvini aniqlashni taqozo etadi. Shu bilan birga, aloqa vositasi bo'lgan tilning fan, madaniyat, adabiyot va san'at taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishni, adabiy til taraqqiyotida ijtimoiy rivojlanish qonunlarining aks ettirilishini hamda til taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

"Har bir adabiy tilning vujudga kelishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning mahsuli bo'lgani kabi, undagi funksional stillarning shakllanish taraqqiyoti ham bevosita ana shu jarayonga bog'liq. Shunday ekan, har bir tildagi uslublarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tilning o'zi qadar uzoq davrlarni qamrab oladi"[2.44]. Tilshunos olim Suyun Karimov o'zbek tili va adabiyotining boshlanish davri salkam ming yillik tarixni o'z ichiga olishini inobatga olib, XI asrdan chinakamiga rivojlana boshlagan o'zbek badiiy ijodining bir qadar murakkab yo'llardan borganligiga e'tibor qaratadi. XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrini bir va undan keyingi davrni ikkinchi bir bosqich sifatida o'rganishni taklif etadi. Birinchi davr o'zbek badiiy uslubiga Sharq adabiyotining bevosita, ikkinchi davrga esa Yevropa adabiyotining bilvosita ta'siri sezilarli darajada bo'lganligi til birliklari orqali namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Yevropa adabiyoti ta'siri jadid namoyandalarining badiiy asarlarida ham seziladi.

“Agar biz O’rta Osiyo xonliklarining Moskva davlati bilan XVI-XVII va XIX asrlarda olib borgan savdo va diplomatik aloqalariga oid turli yorliqlar, elchilar maktublari, tarixiy-maishiy hujjatlarni ko’zdan kechirsak, *o’rus, knoz, put (pud), dujna (dyujina), yashik, samovar, konfut (konfeta), patnus (patnos), lampa* kabi so’zlarning qo’llanganligini ko’ramiz. Ushbu so’zlar ko’proq og’zaki so’zlashuv orqali kirgani uchun fonetik o’zgarishlarga uchrab, o’zbek tilining ichki taraqqiyot qonunlariga bo’ysungan”[1.84].

Bu holat O’rta Osiyoning ruslar bosib olgandan keyin jadallashdi. Natijada o’zbek tilining lug’at tarkibiga siyosat, savdo, transport, moliya, pochta-telegraf, sanoat, harbiy-ma’muriy, uy anjomlari, tabobat, san’at, adabiyot va boshqa sohalarga xos so’z va atamalar kirib o’zlasha boshladi.

Xususan, rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan kirgan so’zlar:

Politseyskiy, pristuv (pristuf), interesniy, dyujina, izvozchik, zako’n (zakon), doktor, injener, sudya, izvinit, isprizdim, izvinit, ispasiba, priexal, mersi, dobriy vechrim (“Padarkush” Mahmudxo’ja Behbudiy).

Duma vakili, gosudarstvenniy, gosudarskiy, vagon, no’mra (nomer), paraxo’d, mineralniy vo’da, istansa, vokzol, imperatur, do’xtir, moshina, elektrli tramvay, ofisar, konsul, bilet, gimnoziyo, po’lis, jandarm, paspo’rt, matros (“Qasdi safar” Mahmudxo’ja Behbudiy).

Panlava, Chamberlen, Liga nosa, kommunist, kultur, bonka (bank), chervon, dekret, teatr, jurnol, gazet, kon’yak (Saidahmad Siddiqiy-Ajziy. Davr matbuotida bosilgan she’rlari)[3.233].

Missioner, volost, volostnoy, o’ktabr (oktyabr), manifest, дума, nomer, susiyolizm (sotsiolizm), prog’rom (programma), jug’rofiya, g’azeta, isxulostiki (sxolastika), filo’suf, prutest, paroxud, teregrof, ayruplon (Hoji Muin. Tanlangan asarlar)[4.129].

Tipichniy, yubiley, komissar, plan, suflyor, zajigalka, lirika, pyesa, klassik, simvolicheski va boshqalar (Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar)[5.154].

Ishlab chiqarish va savdoning rivojlanishi, sinflarning vujudga kelishi, yangi davlatning paydo bo’lishi yoki qayta shakllanishi, ilm-fan va adabiyotning taraqqiyoti kabi ijtimoiy, tarixiy, siyosiy omillar til taraqqiyotida katta ta’sir ko’rsatganligini va bu har bir omil o’zbek adabiy tilida o’z aksini topish bilan chegaralanib qolmay, balki badiiy tasvir vositalari taraqqiyotiga ham o’z ta’sirini ko’rsatganligini tilshunos olim Suyun Karimov ta’kidlagan [2.44].

Muhokama va natijalar. O’zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot davriga nazar tashlab, o’zlashgan so’z va so’z shakllari turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablar bilan kirib kelganligining guvohi bo’lish mumkin.

Jahonda hech bir til yo’qki, uning lug’ati faqat o’z so’zlaridan tashkil topgan bo’lsin. Boshqa tillardan olingan so’zlar o’sha tilda yo o’z shaklini qanday bo’lsa, shunday saqlaydi, yoki uning leksik tizimi, tabiati, grammatik qurilishi, so’z yasalishi va imlo qoidalariga uyg’unlashadi. O’zbek adabiy tili va shevalarida boshqa tillardan kirgan so’zlar ham og’zaki so’zlashuv orqali, ham kitobiy til orqali o’zlashgan. O’zbek shevalari lug’at tarkibiga esa asosan og’zaki so’zlashuv orqali kirib kelgan.

O’zbek va tojik xalqlari qadim zamonlardan beri bir makonda yashab, bir-birlari bilan doimo xo’jalik, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy munosabatda bo’lib kelganlar. Ular o’tmishda yirik qurilish ishlarini barpo etganlar, dushmanlarga qarshi kurashganlar, oilaviy hayot kechirganlar hamda tabiat va jamiyat silsilasiga bardosh berganlar. Madaniy yodgorliklardan hamkorlikda foydalanganlar. Ikki millat va bir xalq deb ta’rif beriladigan ushbu aholi o’rtasidagi yaqinlik milodiy VI asrda boshlanganligini akademik B. G’afurov ta’kidlagan edi [6.110].

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi hamkorlik va yaqinlik ularning tillariga ta'sir etmay qolmadi. Natijada tojik tilidan o'zbek tiliga ko'pgina so'zlar, so'z shakllari, iboralar, izofali birikmalar o'tib, o'zlashdi. O'zbek tilining lug'at tarkibida ijtimoiy hayot, kasb-hunar, adabiyot-san'at, hayvonot dunyosi, jonivorlar, o'simliklar, tabiat hodisalari, vaqt, masofa, o'rin-joy va boshqa sohalarga oid bo'lgan tojikcha so'zlar uchraydi.

Fors-tojikcha so'z, ibora, izofali birikmalar jadid adabiyoti namoyandalarining 1910 yilgacha bo'lgan asarlari tilida ko'p uchraydi. Turkistonlik jadidlar tilni soflashtirish va soddalashtirish, o'z ichki imkoniyat — sheva va lahjalardan foydalanib, tilni boyitishga harakat qilishgan bo'lishsa-da, asarlarida quyidagi fors-tojikcha so'z va izofali birikmalarni uchratish mumkin:

nekbaxt, nochor, mozoriston, xomushona, shams, ob, giriftor, duoxon, ziyon, oftob, aslo, devona, shashqator, otashin, chehra, poymol, yodgori, shoyadki, behuda, paymuda, so'zan, bedard-bedavo, havoif sof, libosi motam, yaki digar, sohibi chehra, ro'yi rizo, baroi hujum, naqshi zar, olami hama (Mahmudxo'ja Behbudiy "Oq yelpog'ichli chinli xotun") [7.106].

dastijon, urfon, donish, chashma, shabiston, guliston, sarukor, raftor, dastor, sarxush, dushvor, giryon, xunrez, yaksar, osori jadid, siynayi parxun, gulshani javlon, Shar'i Qonun, ahli zunnor, sohibi ehson, chashmi xunbor (Saidahmad Siddiqiy-Ajziy "Oyina" jurnalining №37,38 sonlarida chop etilgan she'rlari) [3.232].

qalamtarosh, noshukur, behuda, po'stin, kambag'al, bacha, oshno, panjara, pishak, savdogar, bo'ston, behroq (Saidrizo Alizodaning kichik yoshdagi bolalar uchun yozgan matnlari) [9.52].

yoron, obro'y, nodon, amaldor, hamyon, pistadahon, masxaraboz, boybachcha, sarafroz, dardkash, qimorboz, ordfurush, oshxona, ko'knorxona, nimg'urma, sho'rapo'sht, Sunnati Xudo, Bandai Xudo, hifzi sihat, chashmai shifo, sunbuli sahro (Hoji Muin "Mashrab" jurnalining 1925 yilgi sonlarida chiqqan hajviy matnlari) [4.121].

chaman, sabo, panja, darmon, arjumand, giryon, guftor, ko'hsor, dastgir, digarxun, purkor, zeru po, zadai ta'b, kulbai ahzon, la'li nob (Vadud Mahmud "Tanlangan asarlar" dan) [5.124].

Yuqoridagi fors-tojikcha so'zlar, asosan, ot turkumiga, qisman sifat, ravish, son turkumlariga oid bo'lib, ularning ayrimlari o'zbek tili lug'atiga o'rnashib qolgan.

Jadid adabiyoti namoyandalarining badiiy asarlarida fors-tojikcha so'z va iboralar, izofali birikmalarning ko'pligini Turkiston elining ikki tilliligi bilan ham izohlash mumkin. Alisher Navoiy yozadi: "... turkning kattadan kichigigacha, xizmatkorlaridan begigacha sart (tojik-fors) tilidan bahramanddirlar. Shundayki, o'z tirikchiliklariga oid ahvollar so'zlata olurlar, balki ba'zilar adabiy ravishda so'zlasha olurlar. Hattoki, turk shoirlari forsiy tilda rangdor she'rlar va shirin hikoyalar yuzaga chiqara olurlar"[10.46].

O'zbek adabiy tili lug'at tarkibida arab tilidan kirib o'zlashgan so'zlar ham mavjud. Bu so'zlarning kirib kelishi arablarning Movarounnahrda qilgan istilochilik harakatlari bilan aloqadordir. Arablar VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrda O'rta Osiyoni bosib olganlaridan so'ng mahalliy aholi Islom dinini qabul qilishga majbur bo'ladi. Islom dini bilan birga arab yozuvi ham keng tarqala boshlagan. Maktab, madrasa, masjid va idora ishlari asosan arab yozuvi hamda arab tilida olib borilgan. Arab tilining kitobiy til hamda davlat tili bo'lib qolish an'anasi ancha vaqtgacha davom etib kelgan. Ana shu jihatdan yondashsak, arabcha so'z, so'z shakllari va iboralar o'zbek adabiy tiliga kitobiy til va qisman og'zaki so'zlashuv nutqi orqali kirib o'zlashgan. Arab tilida ilmiy atamalarning puxta ishlanganligi, uning lug'at boyligi va

uslubiy imkoniyatlari rang-barangligi, qulayligi, xususan, jahon miqyosidagi adabiy tillardan biri bo'lgani uchun mahalliy olimlar o'z asarlarini ana shu tilda yozganlar. Bu esa, tabiiyki o'zbek tili tarkibidagi arabcha so'zlarning oshishiga sabab bo'ldi.

adib, fano, rihlat, tolib, ruju', maqsud, mushtag'il, mavt, xotiman, munavvar, zahmat, ihota, muttasilan, mutaasif, tahayur, ishq, muhabbat, kulfat, muqtase', zinhor, asror, ahd, ta'ziyat, soliha, mustaqbala, tafakkur (Mahmudxo'ja Behbudiy "Oq yelpog'ichli chinli xotun") [7.118].

tamaddun, g'aflat, maktab, ta'lim, mujarrab, mumtane', imon, isloh, ruh, maqsud, malhuz, jannat, mahfuf, sabr, vahshat, maorif, ma'rifat (Saidahmad Siddiqiy-Ajziy "Oyina" jurnalining №37,38 sonlarida chop etilgan she'rlari) [3.210].

himmat, navo, taqvo, tasbeh, ixlos, xalos, mazhab, gumon, imon, olim, olam, hikoyat, fig'on, rohat, muborak, lazzat, vajah, (Saidrizo Alizodaning kichik yoshdagi bolalar uchun yozgan matnlari) [9.52].

makr, sajda, nafs, murod, da'vo, juvon, musharraf, alhaq, bazm, majlis, zohir, taajjub, ummat, istirohat, taqvo, musulmon, haq (Hoji Muin "Mashrab" jurnalining 1925 yilgi sonlarida chiqqan hajviy matnlari) [4.129].

mahmar, madrasa, ta'zim, g'urbat, manfur, mutaasir, altof, iqtifo, istinod, ixtilol, majhul, muzahhab, muntahab, muqtado, ofiyat, riyosat (Vadud Mahmud "Tanlangan asarlardan") [5.124].

O'zbek tilida ishlatiladigan arabcha so'zlar turli sohaga xos so'zlardan iborat bo'lib, bular ham fors-tojik tilidan o'tib o'zlashgan so'zlar kabi fonetik, morfologik, semantik va imlo jihatdan uyg'unlashgan holda qo'llaniladi.

Jadid adabiyoti namoyandalari asarlarida shunday so'zlar ham uchraydiki, ularning qaysi tilga taalluqli ekanini aytish mushkul. Bu so'zlarning tarkibi o'zbekcha-arabcha, arabcha-tojikcha, arabcha-o'zbekcha, arabcha-o'zbekcha-tojikcha, tojikcha-tojikcha-arabcha yoki uning aksicha tuzilgan.

Beqaror (f-t.be+ar.qaror), *beandisha* (f-t.be+toj.andisha), *bee'tibor* (f-t.be+ar.e'tibor), *nomuntazam* (f-t.no+ar.muntazam), *sarlavha* (f-t.sar+ar.lavha), *kitobfurush* (ar.kitob+f-t.furush), *duogo'y* (ar.duo+f-t.go'y), *dimog'dorlik* (o'z.dimog'+f-t.dor+o'z.lik), *soatsoz* (f-t.soat+f-t.soz), *muomalador* (ar.muomala+f-t.dor), *musulmoniy* (ar.musulmon+f-t.iy), *tarbiyasizlik* (ar.tarbiya+o'z.siz+o'z.lik), *padarkushlik* (f-t.padar+f-t.kush+o'z.lik), *bachagiryon* (f-t.bacha+f-t.giryon), *ilmsizlik* (ar.ilm+o'z.siz+o'z.lik), *betarbiyalik* (f-t.be+ar.tarbiya+o'z.lik), *hukmfarmo* (ar.hukm+f-t.farmo).

O'zlashgan so'zlarning ma'lum bir qismi davrlarning o'tishi bilan o'z o'rnini boshqa kirib kelgan yangi so'zlarga beradi va qabul qilgan til lug'atidan arxaik yoki tarixiy so'z sifatida chiqib ketadi. Masalan, ilm-fanga oid arabcha atamalar rus va Yevropa tillari orqali qabul qilingan terminlar bilan almashtirildi. "Bu harakat 1989 yilgacha, ya'ni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgunga qadar tez sur'atlar bilan davom etdi. O'zbekcha so'z va atamalarni almashtirish masalasiga, xususan, ruslashtirishga ijobiy masala, taraqqiyot omili, deb qaralgan bo'lsa ham, aslida tilimiz tabiatini yo'qotishga, uning o'zligini unutishga yaqinlashtirib qo'yilgan edi" [1.149].

Jadidlar yaratgan asarlar, darsliklarning tarkibiy tuzilishi, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos matnlar tanlanishi mezonlari, o'qitish usullari chuqur tadqiq qilinishi zarur. Asarlar arab imlosida nashr etilgan ekan, ularni faqatgina o'qish bilan chegaralanib qolmay,

adabiy idrok, uslubchiga xos bilim zarur. Bundan tashqari davr xususiyatini ham anglash ahamiyatga molik.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. –Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San‘at nashriyoti, 1989 y. –B.259
2. Karimov S. Badiiy matnning uslubiy alomatlari. O‘quv qo‘llanma.-Samarqand: SamDU nashri, 1992.- B.44.
3. Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So‘fizoda. Tanlangan asarlar.-Toshkent:Ma'naviyat, 1999. B.232.
4. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. -Toshkent:Ma'naviyat, 2005. –B.129.
5. Mahmud Vadud. Tanlangan asarlar- Toshkent: Ma'naviyat, 2007.-B.104
6. Gafurov B.G. Istoriya tadjikskogo naroda.-Moskva,1952. –str. 99-110
7. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. Oq yelpog‘ichli chinli xotun -Toshkent: Akadernashr, 2018.-B.106
8. Samarqand davlat qo‘riqxonasi №KP-5512/661 raqami ostida saqlanayotgan “Oyina” jurnali.
9. Saidrizo Alizoda. Birinchi yil. Alifbe. –Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022.-B. 52.
10. Navoiy Alisher. Muhokamat ul-lug‘atayn. –Toshkent;1940. –B.46

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).